

EKOLOGIK INQIROZ HAQIDA MA'LUMOTLAR*Andijon Davlat chet tillar**instituti****Yoqubova Soliyaxon Raxmatjon qizi******Ilmiy rahbar: Xomidova Malohat***

Annotatsiya: Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o'zgarishi va inson salomatligi.

Kalit so'zlar: Ekologiya, atrof-muhit, ifloslanish, tabiiy resurslar, iqlim, salomatlik

Annotation: Environmental pollution, depletion of natural resources, climate change and human's health.

Keywords: Ecology, environment, pollution, natural resources, climate, health

Аннотация: Загрязнение окружающей среды, истощение природных ресурсов, изменение климата и здоровье человека.

Ключевые слова: Экология, окружающая среда, загрязнение, природные ресурсы, климат, здоровье.

Ekologiya bu havo bilan bog'liq hisoblanadi. Havoni asrab avaylashimiz kerak, chunki har xil ekologiya bilan bog'liq kasalliklar kelib chiqaryapti. Hozirgi kunda ekologik muammo global muammoga aylanyapti. Ushbu muammolarni sanab o'tadigan bo'sak global isish, kislota yomg'iri, havo ifloslanishi, suv ifloslanishi vahokazolar shular jumlasidandir. Masalan suvni uzluksiz iste'mol qilamiz suvsiz hayot yoq albatta. Suvni iste'mol qilishda suv ham pok, musaffo va shu bilan birga toza bo'lishi kerak. Suvning ifloslanishiga asosan sabab suvga har xil chiqindilarni tashlash va haddan tashqari kop ishlatib isrof qilishdan kelib chiqadi. Suv hayot manbai. Havoning ifloslanishi suv ifloslanishi kabi juda sezilarli darajada. Bundan tashqari havo ifloslanishi tabiiy ravishda bo'lishi ham mumkin. Masalan, vulqon harakati va o'rmon yong'inlari kabilardir. Odamlar orqali ifloslash tabiiy ifloslanishdan ko'ra ko'proq ,chunki mashinalardan chiqqan tutun va gaz bitta hovlida bittadan ko'p mashinalar bo'lishi, atmosfera ifloslanishining yuqori tezlashuvi bilan

o'sishi sanoat bilan bog'liq. Fabrikalarning barchasidan chiqayotga zaharli moddalar yoki tutunlar havoni katta miqdorda ifloslaydi. Dunyoda tirik organizmlar uchun kislorodning asosiy manbai o'rmomlar, ya'ni o'simliklar, daraxtlardir. Eng muhim ekologiya yomonlashishiga sabab o'rmonlarning kamayib ketishi, yo'q qilinishi o'rmon yong'inlari va daraxtlar kesishdan kelib chiqadi. O'rmon yong'inlari kelib chiqishi muhim, lekin ularning aksariyatini odamlar keltirib chiqaradi

Yer osti va yer usti boyliklaridan haddan ortiq ko'p foydalanish tabiiy resurslarning kamayishiga olib kelmoqda va bu ham inson faoliyati va tabiiy omillar tasirida paydo bo'layotgan global muammolardan biridir. Buning asosiy sabalari qilib shularni ko'rsatish mumkin:

- Atrof-muhitning ifloslanishi-tuproq, suv havo sifatining yomomlashuvi;
- Aholi sonining ortishi-resurslarga bo'lgan talabning keskin ko'payishi;
- Iqlim o'zgarishi-suv resurslari, o'rmonlar va hayvonot dunyosiga salbiy ta'sir yetkazish;
- Qishloq xo'jaligi kengayishi-o'rmonlarning kesilishi, suv resurslarining kamayishi, yer osti boyliklariga bo'lgan talabning oshishi;
- Sanoat rivojlanishi-neft, gaz, ko'mirkabi yoqilg'I va yonilg'I resurslarining tez tugatilishi;
- Noto'g'ri boshqaruv-resurslardan to'g'ri foydalanmaslik va hozakolar.

Bu sabablar natijasida ichimlik suvi, o'rmonlar, energetik resurslar, minerallar va metallar, hayvon va o'simlik turlari asosiy kamayib borayotgan tabiiy resurslar hisobiga kiradi. Ichimlik suvi- dunyo bo'ylab suv tanqisligi muammosining ortishi; O'rmonlar-noqonuniy daraxtlar kesilishi muammosi; Energetik resurslar-ko'mir, neft, gaz zaxiralarining keskin kamayish muammosi; Minerallar va metallar-foydali qazilmalar (oltin, kumush, temir)ning tez qazib olinayotganlik muammosi; Hayvon va o'simlik turlari-biolxilma-xillikning yo'qolishi tabiatning zararlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bular iqlim o'zgarishuvining tezlashuvi ekotizimning yomonlashuvi oziq ovqat va suv muammosining tanqisligi, hayvon va o'simlik turlarining qirilib ketishi singari global inqirozlarni yuzaga keltirmoqda. Bu

muammolarning oldini olish uchun insonlar birinchi o'rinda rivojlanish bo'yicha turli xil strategiyalarini yo'lga qo'yishlari lozim. Bundan tashqari odamlar qayta tiklanmaydigan resurslarni avaylashi qayta ishlananadigan mahsulotlarni qayta ishlashi, o'rmonlarni himoya qilishi va ko'paytirishi, suv zaxiralaridan samarali va oqilona foydalanishi shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbaalaridan to'g'ri foydalansagina bu muammolar o'z yechimini topishi mumkin. Kelajak avlodga tabiiy resurslarni asrab- avaylagan holda yetkazish uchun har bir fuqaro qo'ldan kelgancha o'z ko'magini berishi zarur.

Hozirgi kunda iqlim o'zgarishi yildan-yilga rivojlanib borayotgan global muammolarning biri hisoblanadi. Shu o'rinda azon qatlami atmosferaga ta'siri sezilarli darada muhimligi bilan ajralib turadi. Azon qatlami-bu yerdan taxminan 10-50 km balandlikda stratosfera qismida joylashgan hisoblanib u quyoshdan keluvchi zararli ultrabinafsha nurlarini ushlab qoluvchi muhim gaz qatlamidir. Azon qatlami quyosh nurlarining 97-99%ini ushlab qoladi. Agarda bu qatlam zaiflashsa ultrabinafsha nurlari yerdagi tuproq, o'simliklar, suv ekotizmiga va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi buning oqibatida fotosintez jarayoni buzilishi mumkin. Bu holat karbonat angidrid muvozanatini o'zgartiradi va natijada iqlim o'zgarishiga olib keladi. Iqlim o'zgarishi esa azon qatlamini zaiflashtiradi.

Atrof-muhitning ta'siri inson salomatligida asosiy rol ahamiyat kasb etadi. Havononing sifati, suv va oziq-ovqatning tozaligi, tuproq tarkibi, shuningdek, iqlim va tabiat holati ham inson hayotida o'z o'rniga ega. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili millonlab odamlar atrof-muhit omillari tufayli yuzaga keladigan kasalliklardan aziyat chekadi yoki hayotdan ko'z yumadi. Ifloslangan havo sababli nafas yo'llari kasalliklari, yurak qon tomir muammolari, o'pka saratoni va boshqa kasalliklar yuzaga kelishi mumkin. Havoning ifloslanishiga sabab zavod, fabrika va

avtomobillardan chiqadigan zararli moddalar va gazlar sababdir. Oziq-ovqat, suv ifloslanishi orqali asab tizimi yurak va buyraklar, ichak infesiyalari, diareya, gepatit A

va boshqa kasalliklar kelib chiqadi. Bularni oldini olish uchun insonlar sog'lom turmush tarziga rioya qilishi va sport bilan muntazam shug'ullanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, Salomatlik uchun muhim bo'lgan narsalar sog'lom oziq-ovqat, toza havo, sifatli suv sanalsa, turli xil kasalliklar erta qarish va hayot sifatining pasayishiga sabab bo'luvchi omil bu- atrof muhitning ifloslanishidir. Shu sababli, ekologik inqirozlarga yuz tutmaslik uchun inson hayoti, salomatligiga befarq bo'lmaslik shu bilan bir qatorda ekologiyani muhofaza qilish lozimdir.